



FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIDA UCHINCHI SHAXSLAR TUSHUNCHASI

*Xudaynazarova Uldaulet Muratovna
Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik protsessual huquqida uchinchi shaxslar tushunchasi, ahamiyati, uchinchi shaxslar haqida qonun hujjatlarda belgilangan qoidalar, ishda ishtirok etuvchi uchunchi shaxslar haqida olimlarning nazariyalari, uchunchi shaxslarning turlari va ularning protsessual harakatlarda qatnashish tartiblari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Taraflar, javobgar, da’vogar, uchinchi shaxslar, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

Fuqarolik protsessida shunday shaxslar ham borki, ular boshqa shaxslar tomonidan boshlangan jarayonga kirib keladilar va fuqarolik-huquqiy nizolarning hal etilishidan taraflar kabi manfaatdor bo‘ladilar. Da’vogar va javobgarga nisbatan ushbu shaxslar (hisob bo‘yicha) uchinchi shaxslar deb e’tirof etiladi va shuning uchun ham ushbu shaxslar fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar deb nomlanadi.

Yuridik adabiyotlarda uchinchi shaxslar faqat taraflardan biriga nisbatan da’vo taqdim etishi mumkinligi haqida fikrlar ilgari suriladi. M.S.Shakaryanning fikricha, uchinchi shaxslarning bunday da’volari ko‘pincha dastlabki da’vogarga yoki ayrim hollarda faqat javobgarga nisbatan taqdim etiladi. Bizning nazarimizda, uchinchi shaxslar da’voni bir vaqtning o‘zida har ikkala tarafga ham qaratishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasiga muvofiq, uchinchi shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibiga kiradi. Uchinchi shaxslar fuqarolik protsessida taraflarga tenglashtiriladi. Professor Sh.Sh. Shoraxmetov bunday shaxslarning manfaati huquqiy manfaat bo‘lib ko‘riladi, chunki ish yuzasidan chiqarilgan sud qarori ma‘lum darajada ularning fuqarolik moddiy huquqiga ta’sir etishi, ishning sudda hal etilishi natijasida ularga nisbatan muayyan huquq yoki majburiyat vujudga keltirilishi, shu tufayli bu shaxslar o‘z huquqlarini himoya qilish maqsadlarida boshlangan fuqarolik ishiga kirib borishi yoki boshlangan protsessda ishtirok qilish uchun sud tomonidan jalb etilishlari mumkin, degan fikrni bildiradi.



Fuqarolik prosessida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar ishning hal etilishidan qanday mazmunda manfaatdor ekanliklari hamda ish yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarori bilan qanday oqibatlar yuzaga kelishiga qarab, quyidagi ikki turga ajratiladi:

- Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar;
- Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

Fuqarolik prosessida uchinchi shaxslar ishtirok etishining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning to‘liq aniqlanishiga hamda fuqarolik ishining to‘g‘ri hal etilishiga olib keladi. Bunda ish yuzasidan barcha holatni aniqlashga, barcha dalillarni birlashtirib ko‘rib chiqishga imkoniyat yaratiladi;

ikkinchidan, sud va taraflarning vaqtlarini tejash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu prosessual tejamkorlik vositasidir, chunki regresss da'volarni ko‘rib chiqish jarayonida dastlabki da'vo bo‘yicha ishda ko‘rib chiqilgan faktlarni yana qayta ko‘rishga ehtiyoj qolmaydi;

uchinchidan, agar dastlabki mulkiy nizo alohida ko‘rilsa, bu to‘g‘rida chiqarilgan qarorga muvofiq nizoli mulkning keyinchalik sotilishi yoki ishlatib yuborilishining oldi olinadi;

to‘rtinchidan, dastlabki da'vo bilan uchinchi shaxs da'vosi alohida alohida ko‘rligudek bo‘lsa, keljakda bir-biriga muvofiq kelmaydigan sud hal qiluv qarorlari chiqarilishi kabi holatlar yuz berishi mumkin.

Uchinchi shaxslarning navbatdagi turiga oid normalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 45-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish bo‘yicha chiqariladigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisatan bo‘lgan huquq va majburiyatlariga ta’sir etadigan bo‘lsa, sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar da’vogar yoki javobgar tomonida ishga kirishishlari mumkin.

Shuningdek, ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha yoki sudning tashabbusi bilan ishda ishtirok etishga jalg qilinishlari mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, uchinchi shaxslarning mazkur turi, birinchidan, shartli ravishda taraflarning biri (da’vogar yoki javobgar) tomonida turib ishtirok etadi. Ikkinchidan, ular o‘rtasidagi huquqiy munosabat sud muhokamasining predmeti bo‘lmaydi. Uchinchidan, ish bo‘yicha



chiqariladigan hal qiluv qarori uchinchi shaxslarning taraflardan biriga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlariga ta’sir etadi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalg qilish (kirishish)ning yuridik asoslaridan biri regress huquqining ro‘y berishi hisoblanadi. Undan tashqari, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalg qilish har doim ham uning regress huquqi bilan bog‘liq bo‘lavermaydi. Masalan, agar bolalar ta’moti uchun aliment undirish haqida da’vo taqdim etilgan bo‘lib, javobgar boshqa nikohdan tug‘ilgan farzandlariga aliment to‘layotganligi aniqlansa, u holda foydasiga aliment undirilayotgan manfaatdor shaxslar javobgar tomonida turib ishtirok etuvchi uchinchi shaxs sifatida jalg etilishi lozim. Mazkur holatda uchinchi shaxsning regress huquqi yuzaga kelmasa-da, biroq agar da’vo talabi qanoatlantirilgudek bo‘lsa, bu hol boshqa nikohda bo‘lgan farzandlarga to‘lanayotgan aliment miqdoriga, ya’ni uchinchi shaxsning manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Sherik da’vogarlar sudga birgalikda da’vo taqdim etishlari yoki boshqa da’vogar tomonidan boshlangan protsessga kirishishi mumkin. Uchinchi shaxs esa faqat boshlangan protsessga kirishadi. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxsning sherik da’vogarlardan muhim farqlanuvchi jihatlaridan biri ular manfaatining o‘zaro qarama-qarshiligidadir. Zero, uchinchi shaxsning ham, da’vogarning ham da’vo predmeti bir xilda bo‘ladi va sud ularning yoki javobgarning manfaatlarini himoya qiluvchi hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxsning da’vosi bo‘yicha dastlabki da’vogar va javobgar ishda javobgarning holatini egallaydi.

Ish beruvchilarining hamda xodimlarning mehnatga oid huquqlarini, shuningdek jamoatchilik manfaatini himoya qilish uchun sud boshqa shaxslarning iltimosisiz, o‘z tashabbusi bilan ishda ishtirok etish uchun korxonaning mansabdor shaxsini jalg qilish va uning zimmasiga xodimga majburiy bekor yurgan vaqt uchun ish haqi to‘lashi munosabati bilan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklashi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 184-moddasida mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilingan yoki noqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazilgan xodimlarni ilgarigi ishiga tiklash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud mehnat shartnomasini bekor qilishga yoki boshqa ishga o‘tkazishga farmoyish bergen mansabdor shaxsni uchinchi shaxs sifatida javobgar tarafida ishda ishtirok etish uchun o‘z tashabbusi bilan jalg qilishi shart. Ushbu qoidaning kiritilishidan ko‘zlangan maqsad mehnat shartnomasining bekor



qilinishini yoki boshqa ishga o‘tkazish ochiqdan-ochiq qonunni buzgan holda amalga oshirilganligini aniqlasa, shu prosessning o‘zidayoq aybdor mansabdar shaxs zimmasiga majburiy progul yoki kam haq to‘lanadigan ish berilgan vaqt uchun haq to‘lash sababli tashkilotga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash majburiyatini yuklatadi. Bunday hollarda mansabdar shaxsdan undiriladigan summalarining miqdori mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi
2. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi// Mas’ul muharrirlar: yu.f.d., prof. M.M. Mamasiddiqov, yu.f.n., prof. D.Yu. Xabibullaev. – Toshkent.”Lesson press” nashriyoti. 2020. – 607 b.
3. M.M. Mamasiddiqov, Z.N. Esanova, D.Y. Xabibullaev. Fuqarolik protsessual huquqi. Juridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. – T.: TDYU, 2021. – 284 b
4. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar) [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Xabibullaev Davlatjon Yulchiboyevich. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 336 b